
Navbatdagi sessiyada beshta masala ko'rib chiqildi

Bugun 24- sentyabr kuni Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining navbatdagi 43- sessiyasi tuman hokimligining katta majlislar zalida bo'lib o'tdi. Sessiyada ishida sektor rahbarlari, tuman hokimining tegishli o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga aloqador davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Sessiya ishini tuman hokimi Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi S. Soliev olib bordi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan:

????Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilarining 2022 yil iyul, avgust oylaridagi faoliyati samaradorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rishton tuman Xalq qabulxonasi mudiri S. Dodoboevning Axboroti.

????Xalq deputatlari tuman Kengashini 41-sessiyasida qabul qilingan VI-41-73-11-158-K/22, VI-41-75-11-158-K/22 -sonli qarorlar ijrosi yuzasidan tumandagi "Minor", "Qalaynav", "Dasht Pandigon" va "Miskin" MFY lardagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilarining 8 oylik ish faoliyati bo'yicha hisobotlari

???? O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev raisligida joriy yilning 5 may kuni o'tkazilgan videosektor yig'ilishida berilgan topshiriq ijrosi yuzasidan Rishton tuman tez tibbiy va shoshilinch yordam xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha joriy yilni 1 sentyabr kuniga qadar amalga oshirilgan ishlar va yil oxirigacha rejalashtirilgan ishlar yuzasidan tuman TB rahbari v.b. I. Eshmatovning (taqdimoti) hisoboti

????Kam ta'minlangan, ijtimoiy ahvoli og'ir bulgan fuqarolarni (oilalarni) "Temir daftar" ro'yxatiga kiritish va muammolari hal bo'lgan fuqarolar (oilalar)ni ro'yxatdan chiqarish xamda "Mahalla" xayriya jamoat fondini tumandagi "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga tushgan mablag'larni tasarruf etish to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rinbosari A. Mustafaqulovning Axboroti.

???? Tuman byudjeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirish, byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida 2022-yilda tasdiqlagan mahalliy byudjetining mablag'lari hamda qo'shimcha manbalarni hisobidan "Fuqarolar tashabbusli byudjeti" jarayonining 2-mavsumi bo'yicha g'olib takliflarni aniqlash va moliyalashtirilishi tshyarisida moliya bo'limi mudiri I. Jo'raevning axborotlari tinglandi.

Sessiya davomida kun tartibidagi masalalar yuzasidan mutasaddi rahbar va mas'ullarning hisobotlari tinglanib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

2022-09-24 15:02:31